JAHON SAVDO TASHKILOTI SIYOSATINING RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR IQTISODIYOTIGA TA'SIRI	653
Jalolov Umidjon Xudoyberdi o'g'li, Yegamberdiyev Shuxrat Satimbayevich	
РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ В КОНТЕКСТЕ УКРЕПЛЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ УЗБЕКИСТАНА	657
Турсунбоева Нилуфар Отабековна	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI	659
Faxriddinov Bahriddin	
AGROLOGISTIKA TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISHNING AGROEKSPORT SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	663
Faxriddinov Bahriddin	
MINTAQAVIY IQTISODIY SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISHDA INSON KAPITALI VA IJTIMOY SALOHIYATNING O'RNI	667
Zoirov G'olibjon Toshtemir o'g'li	
XORIJIY INVESTITSİYALARINING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI	670
Srajjidinova Nodira Shavkatovna	
STRESS-TESTLASH AMALIYOTI VA UNING TIJORAT BANKLARI BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASHDAGI ROLI	675
Abdusalomov Olimjon Eshmirzayevich	
MAMLAKATIMIZDATURIZM SOHASIGA INVESTITSİYALAR KIRITILISH HOLATI VA SOHADAGI O'ZGARISH TENDENSIYALARI	679
Salomov Farrux Komil o'g'li, Hasanova Parvina	
"AKADEMIK KO'NIKMA VA KASBIY KOMPETENSIYA" FANIDA MUSTAQIL TA'LIMNING PEDAGOGIK MODELLARI: ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAHLIL VA TAKLIFLAR	683
Doniyorova Gulnoza Anvar qizi	
TA'LIM TIZIMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH ORQALI INSON KAPITALINI MUSTAHKAMLASH	688
Oripova Madinabonu Mansur qizi	
REKLAMADA RANG VA PSIXOLOGIYA	691
Muxtorxonova Ozoda Axror qizi	
GO'SHT VA SUT ISHLAB CHIQARISHNI RIVOJLANITIRISH YO'NALISHLARI	694
Qurbonov Alisher Boboqulovich, Abdullaev Jasur Jabborovich	
CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR INVENTORY AUDIT AND CONTROL	699
Nigora Alimkhanova	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ: ВОЗМОЖНОСТИ ПЕРСОНАЛИЗАЦИИ, ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	703
Камалова Малика Низамовна, Очилов Акрам Одилович	
TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI BAHOLASHDA TAHLILY USULLARNING AHAMIYATI	708
Alimxanova Nigora Alimxanovna	
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ И УСЛОВИЯ ПЕРЕХОДА К ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ: АНАЛИЗ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА И ИХ ТРАНСФОРМАЦИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	712
Хусайнов Равшан Рахимович	



TRANSFORMATION OF ORGANIZATIONAL CULTURE IN THE CONTEXT OF DIGITALIZATION: MODERN APPROACHES AND CHALLENGES.....	717
Yuldasheva Makhliyo Bakhtiyar qizi	
QISHLOQ HUDUDLARI IJTIMOIIY INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARI VA O'ZBEKISTON SHAROITIDA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	723
M.Yu.Alimova, Rustamova Gavhar Baxtiyarovna	
HR-MENEJMENT SIFATINING TEKSTIL KORXONALARIDA MEHNAT UNUMDORLIGI VA IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....	726
Yormatov Ilmidin Toshmatovich, Ochilov Akram Odilovich	
TURIZM SOHASIDA GLOBAL IMKONIYATLAR VA RAQAMLI HAMKORLIK.....	731
Salomov Farrux Komil o'g'li	



TURIZM SOHASIDA GLOBAL IMKONIYATLAR VA RAQAMLI HAMKORLIK

Salomov Farrux Komil o'g'li

Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti

Turizm va marketing kafedrası o'qituvchisi

e-mail: fsalomov0609@gmail.com

ORCID: 0009-0003-0506-1355

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy turizm sohasidagi global imkoniyatlar va raqamli hamkorlikning roli yoritilgan. Raqamli texnologiyalarning, xususan sun'iy intellekt, virtual haqiqat, blokcheyn va onlayn platformalarning sayohat tajribasini qanday o'zgartirayotgani tahlil qilinadi. Shuningdek, turizm xalqaro raqamli hamkorlik, marketing strategiyalari va O'zbekiston tajribasi asosida amalga oshirilayotgan innovatsion tashabbuslar misol qilib keltiriladi. Ushbu maqola turizmning raqamli transformatsiyasi jarayonida paydo bo'layotgan yangi imkoniyatlar va muammolarni chuqur tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: global turizm, raqamli hamkorlik, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, virtual haqiqat, onlayn turizm platformalari, turizm innovatsiyalar, marketing strategiyalari, O'zbekiston turizmi, barqaror rivojlanish.

Abstract: This article explores the global opportunities and the role of digital collaboration in the modern tourism sector. It analyzes how digital technologies — including artificial intelligence, virtual reality, blockchain, and online platforms — are transforming travel experiences. The paper also highlights international digital partnerships in tourism, effective marketing strategies, and showcases Uzbekistan's innovative initiatives in this field. The study provides an in-depth analysis of the emerging opportunities and challenges arising from the digital transformation of tourism.

Key words: global tourism, digital collaboration, digital technologies, artificial intelligence, virtual reality, online tourism platforms, innovations in tourism, marketing strategies, tourism in Uzbekistan, sustainable development.

Аннотация: В данной статье рассматриваются глобальные возможности и роль цифрового сотрудничества в современной туристической отрасли. Анализируется, как цифровые технологии — такие как искусственный интеллект, виртуальная реальность, блокчейн и онлайн-платформы — трансформируют туристический опыт. Также освещаются примеры международного цифрового взаимодействия, маркетинговые стратегии и инновационные инициативы, реализуемые в Узбекистане. Исследование предлагает всесторонний анализ новых возможностей и вызовов цифровой трансформации туризма.

Ключевые слова: глобальный туризм, цифровое сотрудничество, цифровые технологии, искусственный интеллект, виртуальная реальность, онлайн-платформы туризма, инновации в туризме, маркетинговые стратегии, туризм в Узбекистане, устойчивое развитие.

KIRISH

Hozirgi globallashuv jarayonida turizm jahon iqtisodiyotining eng tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Raqamli texnologiyalar, xalqaro integratsiya jarayonlari, global axborot oqimlari va onlayn hamkorlik platformalari turizm industriyasining yangi rivojlanish bosqichini belgilab bermoqda. 2020 yildan keyingi davr global pandemiya sabab bo'lgan inqirozning tezkor raqamlashtirish orqali yengib o'tilganini ko'rsatdi. Bugungi kunda turizm raqamli hamkorlik, onlayn bron qilish tizimlari, sun'iy intellekt, "smart tourism", AR/VR texnologiyalari va blokcheyn asosidagi xavfsizlik mexanizmlari global bozorning asosiy drayverlariga aylandi.

XXI-asrda turizm sohasi jahonning eng tez sur'atlarda rivojlanayotgan va iqtisodiy salohiyati kuchli tarmoqlaridan biriga aylandi. Bunda global integratsiya, axborot texnologiyalarining jadal taraqqiyoti va raqamli platformalarning keng qo'llanilishi turizm sohasida yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Sun'iy intellekt, virtual haqiqat, onlayn bron qilish tizimlari va tahliliy dasturlar sayohatchilar uchun qulayliklarni oshirishi bilan birga, turizm kompaniyalari uchun yangi biznes model va strategiyalarni joriy etish imkonini bermoqda.

Bugungi kunda xalqaro miqyosda raqamli hamkorlik orqali ma'lumot almashinuvi, onlayn xizmat ko'rsatish va innovatsion marketing usullarining ommalashuvi turizm sohasida raqobatbardoshlikni oshirayotgani



kuzatilmoqda. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda raqamli texnologiyalarga bo'lgan ehtiyoj sezilarli darajada ortdi, bu esa soha uchun barqarorlik va moslashuvchanlikni ta'minlamoqda.

Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, turizm global YAIMning 10 foizidan ortig'ini tashkil etadi, har 10 ish o'rnidan bittasi aynan turizmga to'g'ri keladi. Global sayohatlar oqimining ortishi davlatlar o'rtasida iqtisodiy, madaniy va tashkiliy aloqalarni kuchaytirib, o'zaro integratsiyani jadallashtirmoqda [7].

O'zbekiston ham turizm sohasida raqamli transformatsiyani faol qo'llab-quvvatlamoda: elektron vizalar, onlayn gidlar, raqamli xaritalar va sayyohlar uchun mobil ilovalar joriy etilmoqda [11]. Ushbu maqolada turizm sohasidagi global imkoniyatlar va raqamli hamkorlikning mohiyati, afzalliklari, mavjud muammolar va istiqbollari chuqur tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy turizmning raqamli transformatsiyasi sohasida ko'plab olimlar chuqur tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, D. Buhalis (Dimitrios Buhalis) — raqamli texnologiyalar va smart-turizm bo'yicha dunyodagi yetakchi olimlardan biri hisoblanadi. U o'zining “eTourism: Information Technology for Strategic Tourism Management” nomli asarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining turizm qanday qo'llanishi va ular orqali xizmatlar sifatini oshirish mumkinligini batafsil yoritgan. Buhalisning fikricha, raqamli ekotizim — turistik tajribani shaxsiylashtirish va samaradorlikni oshirishda asosiy omillardan biridir [1].

Marina Novelli esa barqaror turizm va xalqaro hamkorlikni kuchaytirishda raqamli vositalarning rolini o'rganadi. U turizm sohasidagi global hamkorlik modellari, ayniqsa Afrika va Osiyo davlatlari tajribasi orqali iqtisodiy tengsizlikni kamaytirishdagi raqamli texnologiyalarning ahamiyatiga urg'u beradi [2].

UNWTO (Jahon Turizm Tashkiloti) tomonidan e'lon qilingan turli hisobotlarda raqamli texnologiyalar orqali global turizm bozorining rivojlanish yo'nalishlari, sun'iy intellektdan foydalanish holatlari, blokcheyn texnologiyasining xavfsizlikdagi o'rni va raqamli marketing bo'yicha strategiyalar chuqur yoritilgan. Masalan, UNWTO tomonidan 2023 yilda e'lon qilingan “Tourism and Digital Transformation” hisobotida raqamli innovatsiyalar yordamida rivojlanayotgan davlatlarda turizm sohasini modernizatsiya qilish yo'llari ko'rsatilgan [7].

Shuningdek, o'zbek olimlaridan M. Nurmuhamedov, Z. Jo'rayeva va D. Mamatqulovlar turizm raqamli xizmatlar va O'zbekistonda elektron turizmning rivojlanish yo'nalishlari bo'yicha ilmiy maqolalar e'lon qilgan. Ularning tadqiqotlari milliy raqamli strategiyalar, elektron vizalar, turizm axborot tizimlari va xalqaro raqamli integratsiyaning milliy tajribasini tahlil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Turizm sohasida global imkoniyatlar va raqamli hamkorlik to'g'risida ko'plab ma'lumotlar bilan tanishgan holda, biz mavzuga oid ilmiy izlanishlarimiz davomida mavjud bo'lgan bir qator muammolarga duch keldik va bu muammolarni hal etishga doir tadqiqotning maqsadi hamda vazifalarini shakllantirdik.

Maqsad: global turizm bozoridagi raqamli hamkorlik (OTA, platformalar, marketing, AR/VR, smart-xizmatlar) imkoniyatlarini aniqlash, uning mamlakat yoki region turizmiga ta'sirini baholash va samarali hamkorlik modellari bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Raqamli hamkorlikning (onlayn agentliklar, platformalar, API integratsiyalari) turizm bozoridagi roli va rivojlanish trendlarini o'rganish;
2. Global platformalar bilan hamkorlik orqali mahalliy turizm mahsulotlarini targ'ib qilish imkoniyatlari va mavjud to'siqlarni aniqlash;
3. Ijobiy hamkorlik modellari (strategiyalar, texnologiyalar, huquqiy mexanizmlar)ni ishlab chiqish;
4. Amaliy tavsiyalar va aniq mezonlar ishlab chiqish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli texnologiyalar – global turizmning asosiy harakatlantiruvchi omillaridan biri ekanini dunyo davlatlari tajribasi yaqqol ko'rsatmoqda. Turizm industriyasida raqamli texnologiyalar qo'llanilishi raqamli transformatsiya jarayoni hamda “Smart Tourism” konsepsiyasi asosida bir nechta bosqichlarni o'z ichiga oladi. Quyida ularning asosiy yo'nalishlarini ko'rib chiqamiz.

Bugungi turizm sohasida raqamli transformatsiya quyidagi yo'nalishlar orqali namoyon bo'lmoqda:

- Onlayn bron qilish tizimlari: (Booking, Airbnb, TripAdvisor);
- Mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatish;
- AR/VR texnologiyalari: virtual muzeylar, virtual gidlik;
- Sun'iy intellekt asosidagi chatbotlar: mehmonxonalarda xizmat ko'rsatish;



- Big Data analitikasi: turistlar xatti-harakatini bashorat qilish;
- Blokcheyn: to'lovlar xavfsizligi va tranzaksiyalar shaffofligi.

Raqamli texnologiyalar so'nggi yillarda turizmning barcha bosqichlariga — ma'lumot izlash, rejalashtirish, bron qilish, safar qilish va taassurot almashishgacha chuqur kirib bordi. Masalan, Booking.com, Airbnb, Expedia kabi platformalar turizm xizmatlarini shaffof va tezkor taqdim etmoqda.

UNWTOning 2022-yilgi hisobotida ta'kidlanishicha, global sayyohlarning katta qismi safarlarini onlayn rejalashtiradi va bron qiladi. Bu esa raqamli texnologiyalarning turizmga qanday kuchli ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatadi.

Sun'iy intellekt (AI) yordamida sayyohlarga individual xizmatlar ko'rsatish imkoniyati paydo bo'ldi. Misol uchun:

- Chatbotlar;
- Virtual yordamchilar;
- Rekomendatsiya tizimlari.

mehmonxonalar va turoperatorlar uchun mijoz ehtiyojlarini aniqroq tushunish va tezkor xizmat ko'rsatish imkonini bermoqda.

IBM va Salesforce kabi kompaniyalar AI texnologiyalarini sayyohlik xizmatlariga integratsiya qilmoqda. Ayniqsa, yirik aeroportlarda AI yordamida yo'lovchi oqimini boshqarish va xavfsizlikni ta'minlash keng qo'llanilmoqda.


Raqamli hamkorlik mamlakatlar o'rtasidagi sayyohlik oqimini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Misol uchun, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o'rtasidagi "Digital COVID Certificate" tizimi pandemiya davrida sayohatni saqlab qolishga yordam berdi. Bundan tashqari, O'zbekiston bilan Xitoy, Janubiy Koreya va Turkiya o'rtasida onlayn vizalar, elektron chegara nazorati va IT hamkorlik loyihalari yo'lga qo'yilmoqda. Bunday loyihalar raqamli integratsiyani kuchaytiradi va sayohatchilar uchun qulaylik yaratadi.

Raqamli vositalar faqat xalqaro emas, balki mahalliy turizmni ham rivojlantirmoqda. O'zbekistonda "Uzbekistan.travel", "iTourism" kabi platformalar mahalliy sayyohlik obyektlari, marshrutlar va xizmatlar haqida keng axborot beradi. QR-kodli yo'riqnomalar, virtual gidlar va interaktiv xaritalar ichki turizmga bo'lgan qiziqishni oshirmoqda. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlari (mehmon uylari, qo'l hunarmandchiligi) raqamli marketing orqali o'z xizmatlarini samarali targ'ib qilmoqda.

Raqamli rivojlanish bilan birga xavfsizlik muammolari ham dolzarb bo'lib bormoqda. Sayyohlik xizmatlarida ma'lumotlar himoyasi, onlayn to'lov xavfsizligi va firibgarlikning oldini olish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, blokcheyn texnologiyasi va biometrik autentifikatsiya kabi yechimlar rivojlanmoqda.

Barqaror turizm uchun esa raqamli vositalar ekologik ta'sirni nazorat qilish va monitoring qilish imkonini bermoqda (masalan: ekologik yuk statistikasi, karbon izlarni tahlil qilish).

Raqamli texnologiyalar – global turizmning asosiy harakatlantiruvchi vositalarining ikkinchi turi bo'yicha quyidagi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. "Smart Tourism" konsepsiyasi (muallif tomonidan tayyorlangan).

Bu model bugungi kunda Singapur, Koreya, Ispaniya, BAA kabi davlatlarda keng qo'llanilmoqda. Raqamli texnologiyalarning turizmga qo'shayotgan ulushini O'zbekiston misolida 1-jadval ko'rinishida ishlab chiqilganligini ko'rib chiqishimiz mumkin.



1-jadval. Raqamli texnologiyalarning turizmga qo'shayotgan hissasi (O'zbekiston misolida)

Texnologiya	Turizmga qo'shayotgan hissasi (Umumiy)	O'zbekiston misolida amaliy natijalar
Onlayn bron qilish tizimlari (Booking, Airbnb, TripAdvisor)	– Mehmonxonalarni global bozorda tanitadi – Narxlar shaffofligi, raqobatning oshishi – Turistlar uchun qulay va tezkor bron qilish	– O'zbekistonda 2500+ mehmonxona booking tizimlariga ulangan – Airbnb orqali Toshkent, Samarqand, Buxoroda xonadon ijarasi kengaydi – TripAdvisor'da 1500+ turistik obyektlar ro'yxatga olingan
Mobil ilovalar orqali xizmatlar	– Turistlarga 24/7 xizmat – Xarita, gid, transport, restoran topish imkoniyati – Mahalliy xizmatlarga kirish osonlashadi	– Uzbekistan Travel rasmiy mobil ilovasi – Yandex Go, MyTaxi orqali transport xizmatlari – "E-mehmon" tizimi orqali turistlar ro'yxati elektron yuritiladi
AR/VR texnologiyalari (Virtual muzeylar, virtual gidlik)	– Tarixiy obyektlarga virtual sayohat – Reklama va jozibadorlikning oshishi – Ta'lim turizmini kengaytiradi	– O'zbekistonda 3D-Samarqand, 3D-Buxoro loyihalari – Virtual muzeylar: Davlat san'at muzeyi, Tarix muzeyi – Mirzo Ulug'bek rasadxonasi uchun virtual gidlik
Sun'iy intellekt (Chatbotlar)	Mehmonxonalarda tezkor xizmat Multitillilik, turist bilan muloqotni yengillashtiradi Kutish vaqtini kamaytiradi	Toshkent va Samarqanddagi yirik mehmonxonalar AI-chatbot joriy qilgan (Hyatt, Hilton, Wyndham) Telegram-botlar: "Uzbekistan Travel Bot", "Railway Bot", "AirMarakand Bot"
Big Data analitikasi	– Turistlar oqimini bashorat qilish – Marketing strategiyalarini aniqlash – Turistlarning xulq-atvorini tahlil qilish	Turizm qo'mitasi chegaralardan kirib-chiqish ma'lumotlari asosida turist oqimini tahlil qiladi "E-mehmon" orqali real statistik monitoring Aviakompaniyalar yo'lovchilar oqimini big data orqali boshqarmoqda
Blokcheyn texnologiyalari	– To'lovlarning xavfsizligi – Tranzaksiyalarning shaffofligi – Turizm xizmatlarida firibgarlikning oldini olish	O'zbekiston Fintex Agentligi to'lovlar xavfsizligi uchun blokcheyn asosida nazorat tizimlari joriy qilmoqda Ayrim tur kompaniyalarda kriptoto'lovlarni test rejimida qabul qilish yo'lga qo'yilgan (Toshkent, Buxoro)

Yuqoridagi tahlillarimizda turizm sohasini rivojlantirishda dunyo mamlakatlari keng qo'llab kelayotgan raqamli texnologiyalar haqida aytilgan bo'lsa, endi sohani yanada samaraliroq qilishga rag'batlantiruvchi raqamli hamkorlikni rivojlantirish orqali ham ko'zlagan maqsadimizga erishishimiz mumkindir. Raqamli hamkorlikni bir qancha sohaga qo'llash mumkin bo'lganlarini quyida keltirib o'tganmiz. Ular:

Yagona transchegaraviy turizm axborot tizimlarini yaratish. Bu bir nechta davlatlar tomonidan qo'llaniladigan, turistik ma'lumotlar, vizalar, statistik ko'rsatkichlar, transport, bron tizimlari va xavfsizlik bo'yicha umumiy raqamli platforma hisoblanadi. U quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Turistlar haqida ma'lumot almashish;
- Turistik obyektlar, mehmonxonalar, marshrutlar bo'yicha yagona baza;
- E-viza, E-mehmon, elektron chegara nazorati;
- Xavfsizlik va monitoring tizimlari;
- Transchegaraviy marketing va reklama platformasi;
- Birlashtirilgan bron tizimi.

Turizmda milliy turizm mahsulotlarini global platformalarda targ'ib qilish. Turizm mahsulotlarining global platformalarda targ'ib qilinishi quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- Mamlakat turistik brendining dunyo bozorida tanilishi;
- Xalqaro turistlar oqimini oshirish;
- Investitsiyalar va biznes hamkorliklarini jalb qilish;
- Mahalliy mahsulotlar (hunarmandchilik, gastronomiya) eksportini qo'llab-quvvatlash;
- Onlayn marketing xarajatlarini kamaytirish;
- Global raqobatbardoshlikni kuchaytirish.

Bu jarayon har bir mamlakatning "soft power" (yumshoq kuch) strategiyasini kuchaytiradi.

Sun'iy intellekt asosidagi turistlar oqimi prognozlari

Aqlli shaharlar konsepsiyasini turizmga integratsiya qilish. Aqlli shaharlar (Smart City) – bu raqamli texnologiyalar, IoT, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar orqali shahar infratuzilmasini samarali boshqarish,



aholiga va mehmonlarga qulaylik yaratishga qaratilgan tizimdir. Turizm sektori smart shahar elementlaridan faol foydalanish orqali yanada qulay, xavfsiz, ekologik va innovatsion sayohat tajribasini taqdim etishi mumkin.

Mahalliy startaplarni qo'llab-quvvatlash – AR/VR gidlar, mobil ilovalar, smart-xizmatlar. Mahalliy startaplar turizm sohasida innovatsiyalar yaratishning eng faol manbai bo'lib, ular milliy turizm mahsulotlarini raqamli formatda rivojlantirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va turistlar uchun qulayliklar yaratishda muhim o'rin tutadi. AR/VR texnologiyalari, mobil dasturlar, sun'iy intellekt xizmatlari – bularning barchasi turizmni yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Kiberxavfsizlik standartlarini kuchaytirish. Raqamli turizmning jadal rivojlanishi mehmonxonalar, aviakompaniyalar, turagentliklar, onlayn bron tizimlari va to'lov platformalarida katta hajmdagi shaxsiy ma'lumotlar qayta ishlanishiga olib keldi. Bu esa kiberxavfsizlikni turizm sohasida strategik masalaga aylantirib qo'ydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy turizm sohasi raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan holda global miqyosda jadal rivojlanmoqda. Raqamli transformatsiya nafaqat sayyohlik xizmatlarini soddalashtirmoqda, balki yangi imkoniyatlar echigini ochib, xalqaro hamkorlikni yanada mustahkamlab bermoqda. Sun'iy intellekt, onlayn platformalar, virtual gidlar, blokcheyn texnologiyalari va raqamli xavfsizlik tizimlari turizmning barcha bosqichlarini qamrab olmoqda. Shu bilan birga, raqamli hamkorlik mamlakatlar o'rtasida sayohatni muvofiqlashtirish, madaniyatlararo aloqalarni rivojlantirish hamda turizm sohasida yangi bozorlarni ochishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston misolida ham raqamli turizm infratuzilmasini takomillashtirish, onlayn axborot resurslarini kengaytirish va sun'iy intellektidan foydalanish bo'yicha bosqichma-bosqich chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shunday ekan, turizm sohasining barqaror va raqobatbardosh rivoji uchun davlat siyosati, xususiyl sektor va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi raqamli hamkorlik strategik ahamiyat kasb etadi. Yaqin kelajakda raqamli texnologiyalar orqali turizmning ekologik, madaniy va iqtisodiy qiymatini oshirish — global maqsadlar sari yetaklovchi asosiy vositalardan biri bo'lib qoladi.

Turizm sohasi global iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, uning kelajagi bevosita raqamli transformatsiya va xalqaro hamkorlik darajasi bilan belgilanadi. Raqamli texnologiyalar turizm xizmatlarini optimallashtiradi, tanlov imkoniyatini kengaytiradi, davlatlar o'rtasida integratsiyani kuchaytiradi va butun dunyo bo'ylab sayohatchilar uchun qulayliklar yaratadi. O'zbekiston uchun ham turizmga global imkoniyatlardan foydalanish hamda raqamli hamkorlikni kengaytirish iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Buhalis, D. eTourism: Information Technology for Strategic Tourism Management.
2. Marina Novelli. Handbook of Niche Tourism (pp. 232–234), 2022.
3. Касьянова, О. Е., Шалин, Н. Д., & Саломов, Ф. (2019). Начало предпринимательской деятельности: анализ проблем и вариантов их решения. In Студенческие научные достижения (pp. 70–74).
4. «О мерах по созданию благоприятных условий для дальнейшего развития деятельности гостиничных хозяйств». Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 27 мая 2019 года №433. URL: <https://lex.uz/docs/4360376>
5. Балтабаев М.Р., Тухлиев И.С., Сафаров Б.Ш., Абдухамидов С.А. Туризм: назария ва амалиёт (Туризм: теория и практика). – Т.: «Фан ва технология (Наука и технология)», 2018. – 400 б.
6. Ф. К. Саломов. Использование иностранных туристических кластеров в развитии туризма в Узбекистане.
7. World Tourism Organization (UNWTO). (2023). Tourism Trends and Prospects.
8. Accenture. (2022). The Future of Customer Loyalty.
9. Boston Consulting Group (BCG). (2021). The Digital Advantage.
10. Deloitte. (2023). The Future of Travel and Hospitality.
11. Министерство туризма и культурного наследия Республики Узбекистан. (2023). Стратегия развития туризма до 2025 года.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>